

Qarshi davlat universiteti
“Iqtisodiyot nazariyasi”
kafedrası

REFERAT

**Mavzu: «Moliyaviy bozor va qimmatli qog'ozlar bozorining
iqtisodiyotdagi o'rni va roli»**

Qarshi-2010 y.

Mavzu: «Moliyaviy bozor va qimmatli qog'ozlar bozorining iqtisodiyotdagi o'rni va roli»

REJA

Kirish

- 1. Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar bozorining iqtisodiyotdagi o'rni**
- 2. Qimmatli qog'ozlar bozori - moliya bozorini asosi ekanligi**
- 3. Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar bozorining iqtisodiyotdagi roli**
- 4. Xulosa**

Kirish

«Moliya bozori» atamasi juda keng tushunchadir. U haqiqatan ham keng maʼnoli va murakkab iqtisodiy toifani tashkil qiladi hamda muayyan moliya muassasalari orqali oʻzaro taʼsirda boʻladigan mulk egalari bilan sarmoya, qarz oluvchilari oʻrtasidagi munosabatni tasvirlaydi. Hozirgi zamon iqtisodiyoti uchun moliya bozori oʻzsha xos "asab markazi" hisoblanadi, uning rivojlani

sh darajasiga qarab mamlakat iqtisodiyotining "ahvoli" haqida fikr yuritish mumkin, chunki moliya bozoriga taʼsir koʻrsatib, jamiyatning iqtisodiy faolligini boshqarish mumkin.

Insoniyat tarixida ulardan foydalanishning eng keng tarqalgan ikki usuli maʼlum: naqd pullarni saqlash ("gilam tagiga tashlab qoʻyish" yoki omonat banklariga qoʻyish) yoki qimmatli qogʻozlar sotib olish.

Jamgʻarmalarning koʻpini jamiyatning oila "oʻchoqlari", iqtisodiyotga investitsiyalar qoʻyishni esa asosan xoʻjalik yurituvchi subʼektlar amalga oshiradi. Taraqqiyot davrida bu pul oqimlarning birinchisidan ikkinchilariga oʻtishini tartibga solib turadigan muassasalar, vositalar toʻplamiga ega muayyan mexanizm ishlab chiqilgan. Moliya bozori ana shunday mexanizm sifatida faoliyat koʻrsatadi.

Qimmatli qogʻozlar bozori savdo kapitalining rivojlanish boʻlagʻasida paydo boʻlgan koʻpchilik Gʻarb mamlakatlarida u xoʻjalik mexanizmining eng barqaror yoʻlga qoʻyilgan qismlaridan biri hisoblanadi. U allaqachon birja va birjadan tashqari savdo tizimiga singib ketgan, uning oʻz aqvdalari va anʼanalari mavjud, baʼzi qoidalar va anʼanalar asriy tarixga ega.

Oʻzbekistonda qimmatli qogʻozlar bozorining paydo boʻlishi davlat korxonalarini xususiylashtirish va aktsiyadorlik korxonalariga aylantirish jarayonlari bilan bogʻliq.

Bu bozor boshqa barcha bozorlardan eng avvalo unda ylanadigan totar - qimmatli qotozlar bilan ajralib turadi. Oʻz navbatida, ularning aylanish bu bozor ishtirokchilarining alohida tarkibi, uning faoliyat koʻrsatish tartibi uni tartibga solish qoidalari va hakazoni belgilaydi.

Qimmatli qog'ozlar bozori-bozor iqtisodiyotining eng muxim tarkibiy qismlaridan biri. U moliya bozorining bir qismi bo'lish bilan birga jamg'armalarni to'playdigan va keyinchalik iqtisodiyotga investitsiyalash hamda uning ishlab chiqarish quvvatini takomillashgirish uchun ularni moliya aktivlariga aylantiradigan kanal vazifasini o'taydi. Qimmatli qog'ozlar bozori bank krediti tizimini to'ldiradi va u bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Tijorat banklari, odatda, kreditni 1 yildan ko'p muddatga bermaydi, qimmatli qog'ozlar bozori esa ishlab chiqaruvchilarga ancha ko'p mikkordagi pul mablag'larini amalda istalgan muddatga hamda bank kreditiga nisbatan foydaliroq shartlarda jalb qilishga imkon beradi.

1. Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar bozorining iqtisodiyotdagi o'rni

Moliya bozori iqtisodiyotda markaziy urinni egallaydi chunki iqtisodiyotning barcha sub'ektlari moliya bozori bilan uzviy bogliqdir.

Iqtisodiyotni asosiy beshta sub'ektga bo'lib o'rganish mumkin. Bu sub'ektlarni sektorlar deb atab ularga quyidagilar kiradi:

- Uy xo'jaligi (aholii bilan birgalikda)
- Korxonalar
- Markaziy bank
- Davlat
- Moliya bozori.

Bularning bir-biri bilan o'zaro moliyaviy aloqasini harakatini quyidagi modelda kiritish mumkin. (1-model)

Modelda quyidagi belgilashlar qo'llaniladi:

Ts1, Ts2, Ts3, Ts4 - bu moliya bozori va uning iqtisodiy sektorlari o'rtasidagi o'zaro moliyaviy oqimlar harakatining tsiklik aylanishi ;

MB – Moliya bozori;

MB – Markaziy bank.

Bu modeldan biz moliya bozorining iqtisodiyotdagi o'rnini ko'rishimiz mumkin . Modelda ko'rinib turginidek :


Moliya bozori iqtisodiyotning markaziy sektorini hamda markaziy o'rnini egallaydi. Bunda moliya bozorining har bir sektorining moliya bozori bilan qilgan o'zaro uzviy aloqasi uning tsikllarida (Ts1 Ts2 Ts3 Ts4) namoyon bo'lgan. Davlat bilan uy xo'jaligi, davlat bilan korxonalar o'rtasidagi o'zaro aloqalar esa modeldagi «daromad – soliq» tsiklik aylanishini namoyon qilmoqdalar. Modeldagi har bir tsikllar bir-biri bilan bevosita yoki bilvosita bog'langan ular har birining o'zining oldiga qo'ygan maqsadi belgilab qo'yilgan bo'lib moliya bozoriga bevosita bog'liqdir. Agar moliya bozori orqali bevosita bog'langan bo'lsa u holda sektor o'zining bilvosita ta'siri bilan o'zining harakatiga va boshqalarning

holatiga ta'sir qiladi va aksincha bilvosita ta'sir o'zining holatiga boshqalarning harakatiga ta'sir kiladi.

Moliyaviy bozor to'laligicha moliyalashtirilgan (monetarashtirilgan, valyutalashtirilgan) hamda qandaydir bir holatda sekyuritizatsiyalashtirilgan qatlamdir ya'ni u bir vaqtning o'zida to'rtta sektorga xizmat ko'rsatadi chunki ularning hammasi o'z oldiga qo'ygan aniq maqsadiga ko'ra ularning moliyaviy munosabatlarini bir-birlari bilan ketma-ketlikda ro'yobga chiqaradi .

Moliyaviy bozor to'laligicha moliyalashtirilgan (monetarashtirilgan, valyutalashtirilgan) hamda qandaydir bir holatda sektorizalashtirilgan (xizmatlashtirilgan) qatlamdir, ya'ni u iqtisodiy qonunlarga egalik qilish xususiyatiga hamda kuchga egadir. Moliya bozori bu to'rtta iqtisodiy sektorlarning resurslarga bo'lgan talab hamda tasnifiga ko'ra moliyaviy resurslarni (vositalarni) – taqsimlash va qayta taqsimlash yo'li bilan ularni moliyaviy jihatdan ta'minlaydi. Bu to'rtta iqtisodiy sektorlar moliyaviy ishlab chiqarish jarayonida uning asosiy elementlari asosida ishtirok etadi. Bu jarayonda ular o'zlarining moliyaviy bozor munosabatlarini ro'yobga chiqaradi;

- Moliya bozori to'laligicha moliyalashtirilgan hamda qandaydir bir holatda sektoritizatsiyalashtirilgan qatlamdir ya'ni bu to'rtta iqtisodiy sektorlarning moliyalashtirilgan hamda xizmatlashtirilgan formalari bor vaqtining o'zida har birining siyosat miqdori holati aks ettiriladi. Bu har birining sifat, miqdori holati moliya bozorining umumiy sifat miqdori holatini ifodalaydi. Yana shuni ta'kidlash muhimki moliya bozori to'laligicha bu to'rtta iqtisodiy sektorlar bilan bog'liqdir ular ham o'z navbatida moliya bozoriga bog'liqdir. Umuman olganda bu bitta iqtisodiy sektorlar bir-birlari bilan o'zaro bog'liq, o'zaro aloqada hamda o'zaro kelishilgan harakatdadir.



- Iqtisodiy holatning «indikator» («barometri»)dir. Bu ko'rsatkich orqali to'rtta sektor kelajakdagi xizmatlarini, vazifalarini belgilash mumkin. Masalan, Markaziy bank hamda davlatga kelajakda iqtisodiy rivojlanishini balanslashtirishga oid samarali tezkor makroiqtisodiy qarorlar qabul qilishda o'zlarining siyosatlarini (pul kredit va soliq byudjet) olib borish imkoniyatlari yuklatilgan.

- Moliya bozori to'laligicha moliyalashtirilgan hamda xizmatlashtirilgan qatlamdir, ya'ni moliya-bozor munosabatlari jarayonida iqtisodiyotning boshqa sektorlarini jalb qila olish kuchiga egadir.

SHunday qilib Moliya bozori iqtisodiyotida markaziy o'rnini egallaydi, ya'ni moliya bozori o'z ichiga qimmatli qog'ozlar bozorini oladi. Qimmatli qog'ozlar bozori esa moliya bozorining sek'yuritizatsiyalashtirilgan.

Sek'yuritizatsiya – moliya bozorida qimmatli qog'ozlarning o'sish va kuchayish rolidir. Demak, qimmatli qog'ozlar bozori ham iqtisodiyotda markaziy o'rinni egallaydi.

2. Qimmatli qog'ozlar bozori-moliya bozori asosi ekanligi

Qimmatli qog'ozlar bozorining moliya bozoridagi o'rni shundan iboratki, qimmatli qog'ozlar bozori o'zining muddat hamda shakllariga qarab moliya bozorini tashkil etuvchi qisqa muddatli hamda uzoq muddatli xizmatlarni bajaradi.

Qimmatli qog'ozlar bozori moliya bozorini tashkil etuvchilarga xizmat qiladi hamda u moliya bozori ichida harajatda bo'ladi, yana u moliya bozorining sek'yuritizatsiyalashtirilgan «ikkilamchi analog» ko'rinishdir. U ham moliya bozori singari iqtisodiy holatni aks ettiradi. Qimmatli qog'ozlar bozorida faqatgina qimmatli qog'ozlar aylanadi. Shu xususiyati bilan boshqa bozorlardan farq qiladi. Shuni ta'kidlash joizki, qimmatli qog'ozlar moliyaviy resurslar harakatining faqatgina bir qismining tashkil etadi. Qimmatli qog'ozlardagi tashqari moliya bozorida banklar hamda banklararo ssudalar hamda kreditlar subsidiyalar subventsiya, korxonalararo kreditlar, sug'urta va boshqalar asosiy o'rniga egadir.

«Moliya bozori» faniga ma'ruza matnlar to'plami qimmatli qog'ozlar bozori kredit bozori bilan birgalikda alohida korxona va tarmoqlarning moliyaviy holatini barqarorlashtirish, shuningdek butun xalq xo'jaligi vositalarni muhojlik sezgan yo'nalishlari va ob'ektlariga operativ tarzda qayta taqsimlashga xizmat qiladi. Bunday qayta taqsimlash boshqaruv apparatini yechimi va xohishiga qarab emas, balki pul foizlarini qayta taqsimlashning samaradorligini yuqori bo'lish printsipiga asosan amalga oshadi. Buning natijasida barqaror moliyaviy holatga erishibgina qolmay, ishlab chiqarishni samarali rivojlanishiga ham erishiladi.

Qimmatli qog'ozlar bozorini paydo bo'lishi va amal qiliil real kapital, ya'ni moddiy boyliklar (tovarlar) bozorini amal qilishi bilan chambarchas bog'liq. Tarixiy rivojlanishning ma'lum bosqichlarida qimmatli qogozlar yoki boshqacha aytganda fond aktivlari uchraydi. Ular xaqiqatda xaqiqiy kapitalning aksi ko'rinishi hisoblanadi.

Tovar va pul bir-biriga qarama-qarshi turadi va bundan kelib chiqqan holda bir narxning o'zi 2-chi marta paydo bo'ladi: bir tomondan sotuvchida tovar ko'rinishida, ikkinchi tomondan sotib oluvchiningt puli ko'rinishida bo'ladi. Agar bu muammoni tahlil qilib ko'rsak, qimmatda qog'oz sotib olgan shaxs ma'lum miqdordagi kapital egasiga, sotgan shaxs esa tegishli miqdordagi pul egasiga aylanadi. Amaliyotda bu jarayon murakkabroq ketadi, ya'ni qimmatli qog'oz erkin boydor hisoblanuvchi qimmatli qogozlar bozorida amal qiluvchi ob'ektp aylanadi. Bu bozor ham boshqa bozorlar singari oldi-sotdini amalga oshiruvchi, talab va taklif asosida tovar narxi, aniqlanuvchi iqtisodiy munosabatlar sistemasi ko'rinishida yuzaga keladi.

Yuqorida aytilgandek, qimmatli qog'ozlar fond aktivlari hisoblanadi va ular muomalada bo'ladigan bozor, ya'ni qimmali qog'ozlar bozori fond bozori deb ham yuritiladi. Fond bozorining tovari qimmatli qog'ozlar hisoblanadi. Qimmatli qog'oz tushunchasi, ma'lum rekvizitlar va mulkka egalik qilish xuquqini beruvchi yoki uni bergan shaxs bilan olgan shaxs o'rtasida zaem munosabatlarini ko'rsatuvchi, hujjat tushuniladi. Qimmatli qog'ozda albatta bo'lim kerak bo'lgan

rekvizit sifatida unda qo'yilgan narx, ya'ni qimmatli qog'ozning nominal bahosi hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlar - bu spetsifik tovar. U boshqa tovarlar singari narxiga va iste'mol qiymatiga ega, qimmatli qog'ozlarning iste'mol qiymati deganda uning dividend yoki foiz ko'rinishi daromad keltirish tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga binoan qimmatli qog'ozlar ulardagi xuquqiy normalarga asoslash farqlanadi. Qimmatli qog'ozlar egalariga berilgan xuquqlarga asoslanib ular oddiy va imtiyozli aktsiya, omonat sertifikatleri va depozit sertifikatleri, obligatsiyalar, veksellar va boshqalarga bo'linadi.

Qimmatli qog'ozlarning bozordagi muomala narxi aktsiyalar obligatsiya yoki boshqalar kursi yoki kurs narxlari deyiladi.

Qimmatli qog'ozlar kursi o'zgaruvchanligi bilan xarakterlanadi, ya'ni ular har doim ham nominal narxga to'g'ri kelmaydi. Qimmatli qog'ozlar daromad olish uchun sotib olinadi va shuning uchun ularning kursi olinadigan daromad (dividend yoki foiz)ga bevosita bog'liq. Lekin boshqa tomondan u bank foiziga teskari bog'liq. Buni soddaroq misolda ko'ramiz.

Erkin bozor munosabatlari sharoitida pul egasi pulini qaerga investitsiya qilishni o'zi tanlaydi. U o'z pulini bankka depozit ko'rinishida qo'yib, bank foizini olish yoki qimmatli qog'oz sotib olib, ya'ni pulini investitsiya qilib, undan daromad olishi mumkin. U qilgan investitsiyasi va daromadini bankka qo'yganida va qimmatli qog'oz ogandigisi bilan taqqoslaydi. Bank foizi qancha past bo'lsa, qimmatli qog'oz kursi shuncha yuqori bo'ladi, ya'ni sotib oluvchi pulini banka qo'yganda oladigan daromaddan yuqori bo'lishidir.

Boshqacha qilib aytganda qimmatli qog'oz kursi uning nominaliga foiz sifatida quyidagi formula bilan aniqlanadi:

Qimmatli qog'ozdan daromad
foizlarda $\times 100\%$
bank foizi

Faraz qilaylik, aktsiya 4000so'm nominal yoki kursi bo'yicha sotib olindi. Dividend 6% ni yoki 240 so'mni tashkil qiladi, bank esa qo'yilgan omonat uchun 3% to'laydi. Bunday holda aktsiya kursi nominalga nisbatan 200%ga teng. ($6 \times 100 / 3 = 200\%$). Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda 400 ming so'mlik aktsiya 8000 so'mga teng bo'ladi ($800 \times 3 / 100 = 240$)

Agar bankning % stavkasi 7,5%gacha o'ssa, dividend hajmi o'zgarmasa, aktsiyaning kursi boshlang'ich kursiga nisbatan 80%ni tashkil qiladi, hozirgi holat uchun 3200 so'm ($4000 \times 80 / 100 = 3200$). Ushbu misol abstrakt holda olingan, chunki haqiqiy sharoitda aktsiya kursi ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi sabablarga bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga aktsiya kursini bank %ga bog'liqligi kredit bozorini qimmatli qog'ozlar bozori bilan chambarchas bog'laydi va Markaziy bank % stavkani o'zgartirishi bilan qimmatli qog'ozlar kursini boshqarish imkonini beradi. Qimmatli qog'ozlar bozorida oldi-sotdi predmeti bo'lib, aktsiya, obligatsiya, sertifikatlar boshqa turdagi qimmatli qog'ozlar hisoblanadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek kapital pul, ishlab chiqarish tovar shakllarida bo'lishi mumkin. Qimmatli qog'ozlar bozori (fond bozori) uni pul shaklidan ishlab chiqarish shakliga o'tish tezlashtirish imkonini beradi. U 2 ta funktsiyani bajaradi:

Birinchisi, tarmoqlararo kapitallarni qayta taqsimlash aholining pul mablag'larini raqobatbardosh ishlab chiqarish xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish mumkin bo'nday tarmoqlarni rivojlantirishga yo'naltirish;

Ikkinchi, vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni davlat va boshqa tashkilotlar ehtiyojini qoplashga yo'naltirish.

Aktsiyadorlik jamiyatlari aktsiyalari. U aktsionerni aktsiyadrli jamiyati kapitalida ulushi borligini tasdiqlovchi va jamiya faoliyati natijasida daromad (dividend) olish xuquqini beruvchi xujjat. Aktsiya summasi aktsionerni aktsiyadorlik jamiyatida kapital, mol-mulk, daromaddagi ulushini ko'rsatadi. Aktsiya faoliyat ko'rsatib turgan davrda egasi o'zgarganda ham mavjud (xaqiqiy)

hisoblanadi. Aktsioner aktsiyani chiqargan elimek qaytarishi mumkin emas, balki ikkilamchi bozorda sotishi mumkin..

Aktsiya emissiyasi quyidagi hollarda amalga oshirishi mumk| Aktsiyadorlik jamiyatlarini ta'sis etganda; Ustav kapitalv lakllantirishda va ustav kapitalini kengaytirish uchun qo'shimcha kapital jalb qilgan sharoitda amalga oshiriladi.

Aktsiyaning bir necha turi mavjud. Bir tomondan, aktsiyani bir aktsionerdan boshqasiga berishda ularning nomi yozilgan va yozilmagan, boshqa tomondan, korporatsiyani boshqaruvida ishtirok etish jihatidan oddiy va imtiyozli aktsiyaga bo'linadi. Korporatsiya ustavida ko'rsatilgan aktsiya turlarini chiqarish mumkin.

Nomi yozilgan aktsiya egalari albatta korporatsiya reestridan ro'yxatdan o'tgan bo'lishi kerak. Nomi yozilmagan aktsiya ro'yxatidan o'tkazilmaydi, chunki unga istalgan shaxs egalik qilish mumkin. Ushbu aktsiyalarga egalik qilishning o'zi ularni kompaniya qisman egalik, qilish uchun xuquqiy asos hisoblanadi.

Obligatsiya - bu qimmatli qog'oz bo'lib, uni egasi (kreditor) va chiqargan shaxs (omonatchi) o'rtasidagi qarz munosabatlarini tasdiqlaydi. Obligatsiya egasi uning to'liq qiymati va oldindan belgilangan daromadini olish xuquqiga ega. Obligatsiyalar xususiy korporatsiyalar va shuningdek davlat tomonidan chiqarilishi mumkin.

Davlat qarz majburiyatlari. Unga davlat, davlat xokimiyati va boshqaruvi organlari qarz oluvchi sifatida va qarz beruvchi sifatida yuridik va jismoniy shaxslar ishtirok etgan qimmatli qog'ozlar Sertifikatlar, veksellar, cheklar va shuningdek ularning hosilaviy qimmatli qog'ozlar egalariga xuquqiy guvoxlik beruvchi qog'ozlardir.

Qimmatli qog'ozlar bilan muomala qilishni shakllantiruvchilar bo'lib, avvalo fond birjalari va ular tovar birjasidagi bo'lishlari hisoblanadi. Bular bilan bir qatorda birjadan tashqari bozorlar ham faoliyat ko'rsatadi.

3. Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar bozorining
iqtisodiyotdagi roli

Xalqaro statusga ega bo'lgan har qanday zamonaviy MB hamda QQBning iqtisodiyotdagi rolni quyidagilardan iborat:

1. «Barometr» rolini o'ynaydi, ya'ni u iqtisodiy ahvolni o'lchab beradi. Umuman olganda undagi ko'rsatkichlar orqali iqtisodiy ahvoli aniq ko'rish mumkin, masalan davlat tomonidan o'tkaziladigan iqtisodiy siyosatning samaradorligi hamda sifat ko'rsatkichi ko'rsatiladi, firma hamda tashkilotlar faoliyatning ijobiy yoki salbiy oqibatlari ravshan ko'rinadi.

2. «Kammutator» rolini o'ynaydi. Bu degani iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonining harakatini ko'rsatib beradi, ya'ni u avtomatik ravishda byudjet soliq hamda pul-kredit siyosati instrumentlari tomonidan boshqariladigan bozor kon'yukturasi ta'siri ostida harakatga keladi.

3. «Katalizator» rolini o'ynaydi. Bu degani iqtisodiyotda ilmiy-texnikaviy o'sishini rag'batlantiradigan raqobatbardosh muhitini rivojlantirishdir.

4. «Internatsionalizator» (baynalminal) roligi o'ynaydi. Bu degani moliya bozorining hamda global jahon iqtisodiyotining ishtirokchilarining tengligidir.

5. «Standartizator» rolini o'ynaydi. Bu degani moliya bozorida moliyaviy instrumentlarni standartlashtirish hamda moliyaviy instrumentlar orqali texnologik operatsiyalarni olib borish.

6. «Stimulyator» rolini o'ynaydi. Bu degani iqtisodiyotda bozor sub'ektlarining investitsiyaviy faolligi rag'batlantirishdir. Uning harakati riskni hisobga olgan holda moliyani boshqarish samaradorligi hamda investorlarning haq-huquqlarini yuqori miqdorda himoya qilish yutuqlari hisobidan ta'minlanadi.

7. «Regulyator» rolini bajaradi. Bu degani bozor iqtisodiyoti sharoitida jarayonlarning bir tekis olib borilishdir, institut hamda instrumentlarning harakati doirasi ya'ni bular yordamida iqtisodiyotda investitsiyaviy , pul-kredit, soliq-byudjet siyosatlari yuzaga chiqaradi.

8. «Stabilizator» rolini bajaradi. Buning ma'nosi shuki bozorda narxning barqarorligini ta'minlaydi. Bu barqarorlashtirish iqtisodiyotda raqobatni

rivojlantirish hamda moliyaviy instrumentlar asosida talab hamda taklif og'irligi asosida vujudga keladi.

9. «Protessor» rolini bajaradi. Bu iqtisodiyotning funktsiyalarining bajarilish jarayonidir.

10. «Sekyurizator» bu rolini bajaradi. Buning ma'nosi shuki moliyabozori kundan kunga qimmatli qog'ozlar bilan to'ldirilib borilmoqda hamda ko'pchilik vaqtda qimmatli qog'ozlar moliyaviy munosabatlar jarayonida pul o'rni bosmoqda.

Umuman olganda moliya bozorida qimmatli qog'ozlarning ko'payish jarayonidir.

11. «Informator» rolini bajaradi. Iqtisodiyotning bozor sub'ektlari o'zlarining axborot vositalari bilan risk xatarini kamaytiradi.

12. «Sintezator» vazifasini bajaradi. Bu degani iqtisodiyotda qimmatli qog'ozlarni, ularning yangi turlarini, texnologiyalarini hamda ular ustidan bajariladigan operatsiyalarni sxemalashtirish. QQB ning yangi ishtirokchilarning hamda mexanizmlarini funktsiyalashtirishdir. Uning bahosi – bu bozor kategoriyasining qiymatidir u 2 xil holatda ifodalanadi.

1. Kapitalga bo'lgan talab hamda taklifning o'zaro munosabati,

2. Qimmatli qog'ozlarga bo'lgan daromadning miqdori

Real kapitlaning egizak – analogining massasi real kapitalining miqdorini ko'taradi hamdaular bir-biriga qarama-qarshi yo'nalishida harakat qiladi. Real kapital bilan bozordagi qimmatli qog'ozlar qiymatlarining o'rtasidagi farq daromadni keltirib chiqaradi. Masalan: real kapitlaning qiymati 100 sum, qimmatli qog'ozlarningbozor narxi, 500 so'm unda daromad 400 so'm (500100).

SHunday qilib, real kpaital bilan uning egizak analogining (qimmatli qog'ozlar) u kattaliklari o'rtasida mos kelmasligi bu ularning ikki tomonga yo'naltirilganidir - bu QQBning xarakterli xususiyatidir va uning «sintezatorlashgan» rolidir.

13. «Industri» rolidir. Bu emitentlar, investorlar, dallollar har xil qimmatli qog'ozlar,ishlab chiqarish va qayta ishlab chiqarish faoliyatidagi

qimmatli qog'ozlar asosida kelishgan daromadlar iqtisodiyotning bozor aylanish mexanizmini yuzaga chiqaradi

14. «Analizator» rolini bajaradi. Bu degani investitsiyaviy qimmat sifatining, MB va QQBning, qimmatli qog'ozlar sifatining va moliya bozori munosabatlari qatnashuvchilarining hamda ularning raqobatbardoshligining holatini ifodalaydi, tahlil qiladi.

15. «Mexanizm» rolini bajaradi ya'ni investorlariga hamda elementlarga o'z muammosini hal qilishda yana milliy bozorning jahon moliya bozoriga kirib kelishiga yordam beradi.

16. «Oyna» vazifasini bajaradi, ya'ni bunda ishlab chiqarish doirasida sub'ektlar bilish elementlar o'rtasidagi real holatni hamda raqobat munosabatlarini aks ettiradi. Bu sub'ektlarining raqobatbardoshligi ularning qimmatli qog'ozlari raqobatbardoshligida aks ettiriladi, u teng bo'ladi sub'ektlarining qimmatli qog'ozlari raqobatbardoshligi sub'ektlarining bozordagi raqobatbardoshligini aks ettiradi.

17. «Totalizator» rolini bajaradi. Bu degani qimmatli qog'ozlarni olib sotish operatsiyalarini amalga oshirish yoki narxlarning o'sish yoki kamayishi elementlarning rivojlanishiga olib keladi.

Elementlarning iqtisodiy o'sishni maqsadi shuki, o'z qimmatli qog'ozlarning likvidligini saqlash, bozorda o'z imidjiga va o'rniga ega bo'lishdir.

18. «Birlashtirish» rolini bajaradi ya'ni moliya bozorini tashkil etuvchi fondlarni birlashtirishdir. Bularga QQBning bir-birlarib bilan o'zaro bajargan turlari (birjadan tashqari, birja fond birlamchi va ikkilamchi, qisqa va uzoq muddatli davlat hamda korporativ) kiradi.

QQBning umumiy ko'rinishi murakkab bozor modelidan tashkil etilgan bo'lib, u o'z ichiga bir-biri bilan bog'liq beshta element oladi, bular elementlar (davlat, xalqaro va tijorat tashkilotlari), investorlar, investitsiyaviy institutlari (depozitlarni, kliring palatasi brokerlar, dillerlar, kompaniyalar, investitsiya fondlari va b.), davlatni boshqaruvchi vakillik institutlari hamda o'z-

o'zini boshqarish. Bu elementlar qimmatli qog'ozlar bajaruvchi funktsiya hamda operatsiyalarni bajaradi.

19. «Gipermarket» rolini bajaradi. Bunga bozor ishtirokchilari tomonidan ishlab chiqarilgan moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar kiradi.

20. «Bozor doirasi» rolini bajaradi, ya'ni bozor iqtisodiyoti qonunlarining harakatini ta'minlaydi va asosiy tamoyillarga: iqtisodiy moliyalashtirish, kapitallarni transsormatsiyalash hamda sekyuritizatsiya tamoyillariga rioya etiladi.

21. «Vazminlik» roli-bunda iqtisodiyotda kapitalga bo'lgan talab hamda taklif vazminligi

22. «Moliyaviy globallashuv» roli bunda mamlakatni iqtisodiy jihatdan globallashuvini ta'minlaydi va koordinatsiyalarni transilligi korporatsiya ko'rinishda ta'minlaydi.

23. «Konvertor» rolibubozor mexanizmining milliy valyuta orqali jahon MB da qimmatli qog'ozlarga transformatsiyalashuvidir.

Rivojlanayotgan davlatdagi qimmatli qog'ozlar bozorining rolini ikki tomonlama ko'rib chiqish mumkin. Bir tomondan, gap iqtisodiyotning amal qilishi samaradorligini oshirish haqida, ikkinchi tomondan esa, qimmatli qog'ozlar bozori yordamida ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan qator muxim muammolarni hal etish haqida borayapti.

Birinchi galda uning yordami bilan axolining, korxona va tashkilotlarning, davlatning bo'sh turgan pul hamda boshqa mablag'larining safarbar etilishi va ularning milliy iqtisodiyotning turli sohalariga yo'naltirilishi ta'minlanadi. Buning natijasida kapital iste'molchilari moliyalash manbalariga yo'l topadi, sarmoyadorlar esa, mulkdor bo'lish, o'z mablag'larini saqlash va ko'paytirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, fond bozori qimmatli qog'ozlarga nisbatan talab va taklifning ta'siri ostida yuzaga kelgan bozor narxlarini aniqlab beradi. Agar qimmatli qog'ozlar bozorida kurslar o'zgarib tursa, bu umuman u yerda olibsotarlar va o'yinchilar qing'ir ishlarni qilayapti degani emas. Qimmatli

qog'ozlar kursining o'zgarishi barcha yangi axborotni korxona daromadliligi istiqbollarining so'nggi baholanishiga uzluksiz jalb etilishidan kelib chiqadi. Turli xil taxminlar qisqa muddat ichida o'zgarishi mumkin. Qimmatli qog'ozlarni baxolash muhim darajada korxonalar tomonidan ularning faoliyati to'g'risidagi aniq axborotning o'z vaqtida e'lon qilinishiga bog'liq.

Fond bozorini adolat yuzasidan butun jamiyat ahvolidning barometri deyish mumkin, chunki u iqtisodiy tsiklning harakatiga va nafaqat iqtisodiy jarayonlarning, balki siyosiy vaziyatning o'zgarishiga xam hushyorlik bilan ta'sir ko'rsatadi. Turg'unlik, tanqislik davrlarida, shu jumladan, bunday vaziyat siyosiy jihatdan ham kuzatilganda, qimmatli qog'ozlar kurslarining indeksleri tushib ketadi. Jonlanish va yuksalish davrlarida esa, ular o'sib boradi.

Qimmatli qog'ozlar bozori kapitalni jamlash va markazlashtirishni tezlashtirishga yordam beradi. U investitsiyalarni moliyalash uchun zarur bo'lgan moliyaviy mablag'larni bir korxonalardan boshqalariga o'tkazilishini yengillashtiradi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shundan dalolat bermoqdaki, qimmatli qog'ozlar aylanmasi yordamida jamg'arma va omonatlarning investitsiyaga ikkala tomonni ham qanoatlantiradigan narxda yanada to'liq va tez o'tkazilishi mumkin. Qimmatli qog'ozlar avvalo korxonalar moliyaviy resurslari va axoli jamg'armalarini safarbar qilish hamda ulardan oqilona foydalanish maqsadida chiqariladi. Ularning ama -lii jihatdan maqsadga muvofiqligi bu jihatdan shubhasiz. Xatto mamlakatimizda to'plangan kichik tajriba ham texnik jihatdan qayta jihozlash, yangi ishlab chiqarishni barpo etish yoki amaldagilarini kengaytirish uchun turli korxonalar, tashkilotlar mablag'lari va aholining shaxsiy jamg'armalarini faol jalb etilishidan dalolat bermoqda.

Qimmatli qog'ozlar bozori tarmoqlararo va idoralararo to'siqlarni yengishga ko'maklashadi, bu bilan ishlab chiqarishning umumiylashuvi sifat jihatdan yangi darajaga ko'tariladi. U tufayli kapitalning yanada samarali harakatlanishi va undan samarali foydalanish, shuningdek, xo'jaliklarning o'zini-o'zi moliyalashy ta'minlanadi, Agar moliyaviy resurslar taqsimlanishining markazlashtiriltan tizimida korxonani qayta ta'mirlash yoki texnik jihatdan qayta jihozlashga

mablag'lar ajratilishiga erishish uchun yillar kerak bo'ladigan bo'lsa, taraqqiy etgan qimmatli qog'ozlar bozori sharoitida o'z korxonasining qimmatli qog'ozlarini keyin olingan foydadan u qimmatli qog'ozlarning xaridorlari bilan hisob — kitob qilish sharti bilan bozorga chiqargan holda buni bir ikki oy ichida amalga oshirish mumkin. Bunday sharoitda korxonalar rahbarlari pulni bo'lar — bo'lmasga sarflamaydi, balki ulardan yanada samaraliroq foydalanishga intilishadi.

Qimmatli qog'ozlar bozori yordamida kapitalning aniq shakllari (sanoat, tovar, bank kapitallari) katta harakatchanlikka eg bo'ladi, bu zarur mablag'larni (shu jumladan, shaxsiy jamg'armalarni ham) u yoki bu vazifalarni hal etish uchun tezlik bilan jalb etish imkonini beradi. Qimmatli qog'ozlarning muntazam aylanmasi mamlakat moliya tizimini tubdan yangilashni rag'batlantiradi. Bozor yordamida asosiy iqtisodiy operatorlar — ishlab chiqarish korxonalari, xizmat ko'rsatuvchilar, tijorat banklari, byrjalar va aholi o'rtasidagi aloqalar mustaxkamlanadi.

Fond bozorining turli — tuman vositalari (masalan, davlat qimmatli qog'ozlari) sharoitida davlat byudjetining noishlab qarish xarajatlarini qoplash, muomaladagi oshiqcha pul miqdorini qisqartirish muammolarini hal etish imkoniyatlari. Aholi tomonidan aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarning naqd pulga sotib olishida muomaladagi pul belgilarining miqdori qisqaradi, bu pul muomalasining axvoliga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Aktsiyalar va obligatsiyalarning yanada keng tarqalishi fond bozorini kon'yunkturani o'rganishning muxim vositasiga aylantiradi. Fond bozori turli korxonalar, tarmoqlar, xo'jalik sohalarini, o'sib boruvchi baynalminallashuv sharoitida esa, turli mamlakatlarning milliy iqtisodiyotini bozor jihatdan qiyoslashga yordam beradi.

Bundan tashqari, qimmatli qog'ozlar bozori yordamida pulni "ko'p ishlashga" majbur qilish va bu bilan butun xalq xo'jaligi samaradorligini oshirish mumkinligidan tashqari, qimmatli qog'ozlar bozori jamiyatning muhim ijtimoiy muammolarini hal etish imkonini beradi. Qimmatli qog'ozlarga egalik qilish va ular bilan savdo —sotiq qilishda ishtirok etish aholining daromadlarini

ko'paytiradi, uning moddiy farovonligini oshirishga ko'maklashadi, shuningdek, jamiyatning asosiy harakatlanuvchi kuchi bo'lgan insonni faollashtiradi. Fond bozori mulkdorlar sinfini shakllantirishga ko'maklashadi. Har bir qimmatli qog'oz egasi korxonaga birgalikda egalik qilishi mumkin. Ishlab chiqarishni boshqarishda demokratik asoslar kuchaymoqda. Aktsiyador ishchilarning o'z mehnatining natijalaridan manfaatdorligi ortmoqda. Shunday qilib, fond bozori — bu insonni ishlab chiqarish vositasidan va uning mehnati natijalaridan begonalashuviga barham berishning eng muhim vositalaridan biridir.

Qimmatli qog'ozlar moliyaviy instrumentlarning boshqa turlaridan farqli eng katta va alohida bozoriga ega bo'lgan guruhini tashkil etganligi munosabati bilan ularning mazmun-mohiyatini mahsus ravishda ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Ta'kidlash joizki, qimmatli qog'ozlar moliyaviy instrumentlarning bir turi bo'lganligi uchun umuman olganda mazmunan sinonimdir lekin ular moliyaviy instrument-larning boshqa turlaridan ma'lum jihatlari bilan farq qiladi.

Qimmatli qog'ozlar iqtisodiyotda o'z ahamiyati, o'rni va funktsiyalarini allaqachon isbotlaganligiga qaramasdan ularning mazmuni to'g'risida hanuzgacha qizg'in bahslar davom etib kelmoqda. Masalan, Dj.R.Xiksning fikricha, zamonaviy pullar uzoq muddatli iste'mol tovari emas, balki qimmatli qog'ozlarning turi sifatida ifodalanadi. Rossiyalik olimlarning fikricha, qimmatli qog'oz fiktiv kapital sifatida namoyon bo'luvchi vosita va h.k. Bunday bahslar qimmatli qog'ozlarni shaklan turli, mazmunan o'hshash, lekin, to'liqligi bilan ajraladigan hajmdagi ma'noda talqin qilinishiga olib kelmoqda. Ushbu tendentsiya qimmatli qog'ozlar evolyutsiyasida tabiiy holatdir, chunki barcha nazariy talqinlar vaqt o'tishi bilan qimmatli qog'ozlarning mazmun-mohiyati takomillashib borgani uchun o'zgarishi ob'ektiv jarayondir. Shuning uchun qimmatli qog'ozlar va ularning bozorini hozirgi zamondagi mazmun-mohiyati, iqtisodiyotdagi ahamiyati, roli va funktsiyalaridan kelib chiqqan holda moliyaviy instrument singari quyidagicha talqin qilish mumkin.

Qimmatli qog'oz – bu, umuman olganda, monetizatsiyalashgan (pul bilan ta'minlangan) real bazisga ekvivalent (“egiz-analog”) qiymatga hossalarga ega bo'lgan, mahsus iqtisodiy-xuquqiy mexanizm bilan ta'minlangan, o'ziga hos bozordagi moliyaviy munosabatlarni belgilovchi, shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlanishi va qayta taqsimlanishini ta'minlovchi, muayyan hollarda ma'lum shakllarda daromad keltiruvchi vosita sifatida har hil turlarda, shakl va mazmunlarda namoyon bo'ladigan ham investitsion kapital (aktiv, mahsus fond jamg'armasi boyligi, qimmatli qog'ozlar portfeli), ham to'lov vositasi, ham alohida fond bozori tovaridir.

Qimmatli qog'oz bir vaqtning o'ziga iqtisodiy kategoriya va yuridik konstruktsiya sifatida mazmunga ega.

Qimmatli qog'ozning ekvivalentlik hossasi moliyaviy instrumentlar-ning boshqa turlari singari bevosita va bilvosita, real va nisbiy bo'lishi mumkin. Ushbu hossa evaziga qimmatli qog'ozlar ularni chiqaruvchisining (emitentining) “egiz-analogi” (ya'ni ekvivalenti) sifatida namoyon bo'ladi. Fond ko'rinishidagi (fond bozori) tovarliligi hossasi esa uni boshqa turdagi tovarlardan (ko'chmas va intellektual mulk, hom ashyo va shu kabilar) farqli kimningdir (emitent, ya'ni muomalaga chiqaruvchi, bo'lmish iqtisodiyot sub'ektlari) tomonidan chiqarilishi, o'ziga hos qimmatli qog'ozlar bozorida muomalada bo'lishi, unda mahsus funktsiyalarni va rolni bajarishi bilan belgilanadi. Bunda qimmatli qog'ozlarning roli va funktsiyalari moliyaviy instrumentlar singari aniqlanadi. Bozor hossasi qimmatli qog'ozni pulga yaqinlashtiradi, chunki u ma'lum sharoitlarda pulning funktsiyasini bajara oladi, to'lov vositasi sifatida qo'llanilishi mumkin. Qimmatli qog'ozning fundamental hossalari aylanuvchanligi, likvidliligi, jalbdorliligi, risklilili va shu kabi boshqa ko'rsatkichlar bilan belgilanadi. Umuman olganda, qimmatli qog'ozlar hossalarni yuqori sifat darajasi fond bozorining samarali holatini belgilaydi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi” Qonuni loyihasi (2007 yildagi) bilan belgilangan qimmatli

qog'ozning ta'rifini mazmunan yuqorida keltirilgan talqinda tushunish maqsadga muvofiq. Ushbu Qonun loyihasiga muvofiq "Qimmatli qog'ozlar - ularni chiqargan shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki zayom munosabatlarini tasdiqlovchi dividend yoki foizlar ko'rinishida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga berish imkoniyatini nazarda tutuvchi hujjatlardir". Ko'rinib turibdiki, bu ta'rifda ekvivalentlilik hossasi inobatga olinmagan.

Real bazisga ekvivalent bo'lgan qimmatli qog'ozlar yordamida fond bozori orqali samarali investitsion va transfer (to'lov) jarayonlari, iqtisodiyot sub'ektlarining maqsadli va tartiblashtirilgan iqtisodiy-xuquqiy bozor munosabatlari amalga oshiriladi. Bunda qimmatli qog'oz alohida tovar va moliyaviy instrument sifatida o'zida mujassamlashtirgan real kapitalning (yoki egalik xuquqining) ham ekvivalenti, ham turli shakl va mazmundagi "simvoli" bo'lib namoyon bo'ladi. Mos ravishda u o'zining alohida qimmatli qog'ozlar bozorida mahsus tovar sifatida erkin muomalada bo'lib, bir vaqtning o'zida parallel tarzda real bazisini o'ziga hos bozoridagi dolzarbliligi va bozorgirilligini belgilaydi. O'z navbatida aksincha real bazis ham o'zi mujassamlashgan qimmatli qog'ozning tovar sifatida fond bozoridagi (erkin muomalasi jarayonidagi) hossalari (ma'lum ko'rsatkichlar bilan ifodalangan) sifat darajasini belgilaydi. Natijada, har qanday bazis va uning ekvivalenti bo'lgan qimmatli qog'oz o'z bozorlarida erkin muomalada bo'lib, bir biriga o'zaro mazmun, demak, jon ato etib uzviy bog'liqlikda, har biri o'zining alohida bozor hossalari va hususiyatlariga ega bo'ladi. Bu qonuniyat qimmatli qog'ozni pul agregatlari tarkibiga kiritilishini ta'minlaydi, uning yordamida real kapitalni parallel jonlashtiruvchi (ya'ni yangidan jon ato etuvchi) va uning bozor qiymatini orttiruvchi alohida moliyaviy instrument sifatida belgilaydi.

SHuning uchun qimmatli qog'oz "fond instrumenti" sifatida "fond boyligi" deb ifodalanadi, uning yordamida real boyliklarga (bazisga) ega bo'lish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa fond bozori kon'yunkturasiga bog'liq holda boyliklarni bir sub'ektdan boshqasiga o'tishishi (harakatini) ta'minlaydi, natijada

qimmatli qog'ozlar bozori orqali moliyaviy resurs-larni iqtisodiyotda samarali taqsimlanishi va qayta taqsimlanishining qonuniyatli jarayonini vujudga keladi.

Yuqorida aytilganlarga asosan, qimmatli qog'ozni moliya (fond) bozorining samarali moliyaviy instrumenti bo'lishi uchun quyidagi talablar qo'yilishi maqsadga muvofiq: qimmatli qog'oz va uning bazisini ekvivalentliligi; qimmatli qog'ozni fond bozori tovari va boyligi sifatida ishonchli iqtisodiy-xuquqiy mexanizm va mahsus ochiq moliya bozori infratuzilmasi bilan ta'minlanganligi.

Qimmatli qog'ozlar tasnifi


Umuman olganda qimmatli qog'ozlar moliya instrumentlarining tasnif belgilari asosida tasniflanadi. Lekin qimmatli qog'ozlarning ma'lum mazmun va hususiyatlari ularni qo'shimcha tarzda alohida tasniflashni taqazo etadi. Shu munosabat bilan o'quv maqsadlarida qimmatli qog'ozlarni 2.2.4-2.2.6 rasmlarda keltirilgan shakllarda tasniflanishini keltirish mumkin .

Qimmatli qog'ozlarning hisobi mahsus depozitariylarda va (yoki) reestrlarda yuritiladi.


Orderli qimmatli qog'ozlarning qo'ldan qo'lga o'tishi indossament asosida indossant tomonidan amalga oshiriladi.

Taqdim etuvchiga bo'lgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha xuquq indentifikatsiya qilinmaydi.


Emissiyalanuvchi qimmatli qog'ozlarga sertifikat (lotincha certificado - tasdiqlayman) chiqarilishi mumkin. Sertifikat oldi-sotti ob'ekti bo'lmaydi.



Rasm. 2.2.4. Emissiyalanadigan va emissiyalanmaydigan qimmatli qog'ozlar tarkibi (klass va chiqarilish usuli bo'yicha guruhlashtirish)



Rasm.2.2.5. Qimmatli qog'ozlarni funktsional belgisi bo'yicha guruhlanishi



Rasm.2.2.6. Qimmatli qog'ozlarning klassifikatsion turlari

Qimmatli qog'ozlarni chiqarishda quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

1. Aktsiya (oddiy va imtiyozli) chiqarish va joylashtirish yo'li bilan aktsiyadorlik kompaniyasini to'zish.
2. Obligatsiya chiqarish va joylashtirish yo'li bilan moliyalashtirishni kengaytirish.
3. Qo'shimcha investitsiya jalb qilishda kompaniyada hukmronlikni saqlab qolish uchun imtiyozli aksiyalar va obligatsiyalar chiqarish.

Davlat qimmatli qog'ozlari quyidagi maqsadlarda chiqariladi:

- joriy byudjet kamomatini (defitsitini) moliyalashtirish;
- avval joylashtirilgan qarzlarni so'ndirish;
- davlat byudjeti kassasining bajarilishini ta'minlash;
- soliq to'lovlarining notekis tushumini tekislash;
- tijorat banklarini likvid rezerv aktivlar bilan ta'minlash;
- davlat va mahalliy xokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladigan maqsadli investitsion dasturlarni moliyalashtirish;
- ijtimoiy muhim ahamiyatga ega bo'lgan muassasa va tashkilotlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

Nodavlat tashkilotlar esa investitsiyalarni jalb qilish uchun korporativ qimmatli qog'ozlar chiqaradilar.

Yuqorida kelib chiqib aytish mumkinki, qimmatli qog'ozlarni umuman ikki katta guruhga ajratish mumkin: bazaviy va bazisli qimmatli qog'ozlarga. Bazaviy qimmatli qog'ozlarga ulush va qarz munosabatlarini o'zida mujassamlash-tiruvchi emissiyanuvchi (derivativlardan tashqari) va emissiyanmaydigan qog'ozlar kiradi. Bazislilariga esa derivativlar (hosilaviy qimmatli qog'ozlar) kiradi.

Qimmatli qog'ozning hayot tsikli (davr bosqichlarini o'z ichiga oluvchi) quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi: emissiyaga tayyorgarlik (emissiyaoldi), emissiya risolasini davlat ro'yhatidan o'tkazib chiqarish va joylashtirish (emissiya), bozor muomalasi, muomaladan chiqarish (so'ndirish). Har bir jarayondagi ishlar tegishli qonun hujjatlarida belgilanganidek amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich (emissiyaga tayyorgarlik) quyidagi jarayonlardan iborat: chiqarilajak qimmatli qog'ozlarni, ularning hajmini va qiymatini bazisiga ekvivalentlilik darajasi asosida maqsadga muvofiqligini, bozor tendentsiyasini, shartlarini tadqiq qilish va asoslash; emissiya taktikasi va strategiyasini ishlab chiqish; uni muhokama qilish va chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish (vakolatli organ tomonidan); emissiya risolasini davlat ro'yhatidan belgilangan tartibda o'tkazish uchun tayyorlash.

Ikkinchi bosqichda emissiya risolasi davlat ro'yhatidan o'tkaziladi, qonunchilik hujjatlari va risolada belgilangan tartibda reklama qilinib potentsial investorlar o'rtasida joylashtiriladi, emissiya natijalari to'g'risida hisobot berib boriladi.

Uchinchi bosqichda joylashtirilgan qimmatli qog'ozlar ikkilamchi bozorda uning kon'yunkturasiga bog'liq holda erkin muomalada bo'ladi, buning uchun emitent ularning ekvivalentlilik darajasini uzluksiz ta'minlab bozordagi kursini monitoring qilib boradi. Bunda emitent va bozorning transparentligi katta ahamiyatga ega.

To'rtinchi bosqich qimmatli qog'ozlarni ularning risolasi shartlariga asosan hamda (yoki) qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda muomaladan chiqarish (so'ndirish).

O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi" Qonuni loyihasiga asosan korporativ qimmatli qog'ozlarning (aktsiyadorlik jamiyatlari aktsiyalari va obligatsiyalari, korxonalarning derivativlari) hayot tsikli jarayonlari bunday qog'ozlar bilan bog'liq munosbatlarni tartiblashtiruvchi vakolatli davlat organi (hozirda qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Markazi) tomonidan muvofiqlashtiriladi va nazorat qilinadi. Bunda tijorat banklarining aktsiyalarini chiqarilishi Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Markazi (keyingi matnlarda Markaz deb yuritiladi) tomonidan Markaziy bank bilan kelishilgan kelishilgan tartibda amalga oshiriladi.

Banklarning aktivlari bilan bog'liq qimmatli qog'ozlarni Markaziy bank tartiblashtiradi.

Veksellarni chiqarilishi Markaziy bank va Moliya vazirligi tomonidan tartiblashtiriladi.

Davlat qimmatli qog'ozlari bozorini vakolatli davlat organlari (qog'oz turlariga qarab Vazirlar Mahkamasi, Moliya vazirligi, Markaziy bank) tartiblashtiradi.

Korporativ qimmatli qog'ozlar chiqarilishida emitentdan davlat byudjetiga qonunda belgilangan hajmda emission yig'im olinadi.

Vakolatli davlat organi respublikada davlat ro'yhatidan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlarning umumiy davlat reestrini yuritadi va ro'yhatini muntazam e'lon qilib boradi.

Qimmatli qog'ozlarni davlat ro'yhatidan o'tkazmasdan ommaviy axborot vositalari orqali reklama qilish man etiladi.

Xulosa

Iqtisodiyotning rivojlanishiga moliya bozori juda katta ahamiyatga ega.

Chunki oldingi rejalarda ta'kidlab o'tganidek moliya va qimmatli qog'ozlar bozorining iqtisodiyotdagi o'rnini va rolini ko'rib chiqdik.

Hozirgi zamon bozor iqtisodiyotida, ma'lumki, qimmatli qog'ozlarning asosiy elementlaridan biri davlatdir (ko'rincha xazinachi sifatida) Butun dunyoda qimmatli qog'ozlarni markazlashgan usulda chiqarishdan davlat iqtisodiyotni tartibga solish vositasi sifatida, torroq ma'noda esa pul muomalasiga va pul massasi hajmini tartibga solishga ta'sir qilish dastagi davlat va mahalliy byudjet yetishmovchiligini komission usulida qoplash vositasi korxonalar va aholining pul mablag'larining aniq masalalarni hal qilishga jalb qilish maqsadida foydalanadi.

Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar bozori iqtisodiyotda markaziy o'rinni egallaydi deb ta'kidlab o'tgandik. Chunki moliya bozori iqtisodiyotning asosiy to'rtta sektorlarni (uy xo'jaligi, davlat, korxona, markaziy bank) o'z ichiga oladi, ularni ta'minlaydi.

Qimmatli qog'ozlar moliya bozorining asosiy bir turi bo'lganligi uchun u ham iqtisodiyotda markaziy o'rnini egallaydi.

Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar bozori iqtisodiyotda «Barometr», «Kommutator» «Katalizator», «Stimulyator», «Protessor» va boshqa rollarni bajarishini oldingi rejalarda aytib o'tdik.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda har qanday makroiqtisodiy islohotlar o'tkazilgan bo'lsa ham qimmatli qog'ozlar bozori va moliya bozori kam ta'minlangan .

Mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozori ham shakllanish bosqichida. Bunda asosan O'zbekiston Respublikasi Davlat Mulki qo'mitasi tomonidan fondlar birjasida va fondlar do'konlari orqali xususiylashtirilgan korxonalarning erkin sotish uchun mo'ljallangan aktsiyalar natijasi sotiladi. Qimmatli qog'ozlarning birlamchi bozori ustuvor faoliyat ko'rsatmoqda. Ikkilamchi bozor esa endigina shakllanmoqda.

Umumiy xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, iqtisodiyotni moliya bozori va qimmatli qog'ozlar bozorisiz ko'rib o'tish juda qiyin, chunki moliya bozori iqtisodiyotning qon tomiri vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T., "O'zbekiston", 2009y.**
- 2. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T., Sharq", 2006y.**
- 3. SHodmonov Sh. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T., "Mehnat", 2005y.**
- 4. O'lmasov A., Sharifxo'jaev M. Iqtisodiyot nazaryasi. Darslik. T., "Mehnat", 1995y.**
- 5. «Pul va moliya bozorlari» Chjen V.A.**
- 6. «Qimmatli qog'ozlar bozori» I.Butikov**
- 7. «Рынки: Финансы и ценных бумаг» Shox'azamiy Sh.SH.**
- 8. «Финансовый рынок и ценные бумаги» I. Shox'azamiy Sh.SH.**